e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/pdvdat56

BO‘LAJAK FILOLOGLARDA KASBIY-PEDAGOGIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA INTEGRATSIYALASH MASALALARINING TARIXIY-PEDAGOGIK RIVOJLANISHI

Artikov Akram Elmurodovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, doktorant.
e-mail: akram.artikov1989@gmail.com **ORCID:** https://orcid.org/0009-0003-3573-7213

Annotatsiya.
Maqolada bo‘lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish va integratsiyalash masalalari tarixiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Sharq mutafakkirlarining ilm va amal birligi hamda fanlarning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi qarashlari, jadid ma’rifatparvarlarining o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga oid g‘oyalari, shuningdek, zamonaviy pedagogikada shakllangan integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlarning nazariy asoslari yoritilgan. Tahlil natijalari kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni takomillashtirishda tarixiy tajribaga tayanish va uni zamonaviy integrativ o‘qitish modeli bilan uyg‘unlashtirish ilmiy jihatdan zarur ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy-pedagogik ko‘nikma, bo‘lajak filolog, integratsiya, integrativ yondashuv, tarixiy-pedagogik tahlil, Sharq pedagogik fikri, jadidchilik.

ИСТОРИКО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ВОПРОСОВ ФОРМИРОВАНИЯ И ИНТЕГРАЦИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У БУДУЩИХ ФИЛОЛОГОВ

Артиков Акрам Элмуродович
Узбекский государственный университет мировых языков, докторант.

Аннотация.
В статье проводится историко-педагогический анализ вопросов формирования и интеграции профессионально-педагогических навыков у будущих филологов. Рассматриваются взгляды восточных мыслителей на единство знания и практики, а также взаимосвязь наук, идеи джадидских просветителей относительно профессиональной подготовки учителей и теоретические основы интегративного и компетентностного подходов, сформировавшихся в современной педагогике. Результаты анализа показывают, что совершенствование профессионально-педагогических навыков требует научно обоснованного обращения к историческому опыту и его согласования с современной интегративной моделью обучения.

Ключевые слова: профессионально-педагогические навыки, будущий филолог, интеграция, интегративный подход, историко-педагогический анализ, восточная педагогическая мысль, джадидизм.

HISTORICAL AND PEDAGOGICAL DEVELOPMENT OF APPROACHES TO FORMING AND INTEGRATING PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL SKILLS IN PROSPECTIVE PHILOLOGISTS

Artikov Akram Elmurodovich
Uzbekistan State World Languages University, Doctoral Student.

Abstract.
This article provides a historical and pedagogical analysis of the formation and integration of professional and pedagogical skills in prospective philologists. It examines the views of Eastern thinkers on the unity of knowledge and practice and the interrelationship between academic disciplines, the ideas of Jadid reformist educators concerning teachers’ professional preparation, and the theoretical foundations of integrative and competency-based approaches developed in modern pedagogy. The findings indicate that improving professional and pedagogical skills requires drawing on historical experience and aligning it with contemporary integrative teaching models.

Keywords: professional and pedagogical skills, prospective philologist, integration, integrative approach, historical and pedagogical analysis, Eastern pedagogical thought, Jadidism.

Kirish. Globallashuv jarayoni va oliy ta’lim tizimida davom etayotgan keng ko‘lamli islohotlar pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalaridan bo‘lajak mutaxassisni faqatgina chuqur nazariy bilim bilan qurollantirish bilan cheklanib qolmasdan, uning kelgusi faoliyatida bevosita qo‘llanadigan amaliy va kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarini ham izchil rivojlantirishni taqozo etmoqda [1]. Bu yo‘nalish davlatimiz siyosatida ham o‘z ifodasini topgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-73-son Farmonida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy

ISSN 3060-5059 (Online)

kompetensiyalarini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1].

Bo‘lajak filologlarni, jumladan, xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlashda tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarini o‘qitish metodikasi bilan bog‘lash, ya’ni integrativ yondashuvni qo‘llash alohida o‘rin tutadi. Ilm bilan amalning birligi, fanlararo aloqadorlik, muallim mahoratiga qo‘yiladigan talablar – bularning barchasi qadimdan Sharq mutafakkirlari va XX asr boshidagi jadid ma’rifatparvarlari merosida yorqin aks etgan.

Integrativ o‘qitish va filologik ta’lim masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ancha keng yoritilgan [11, 12, 19]. Biroq bo‘lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarning tarixiy-pedagogik ildizlari va ularni zamonaviy integrativ yondashuv bilan uyg‘unlashtirish mexanizmlari yaxlit tizim sifatida hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi – bo‘lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni shakllantirish va integratsiyalash masalalarining tarixiy-pedagogik rivojlanish bosqichlarini aniqlash hamda ularni zamonaviy integrativ ta’lim yondashuvlari bilan uyg‘unlashtirishning nazariy asoslarini ochib berishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: IX–XI asr Sharq mutafakkirlari qarashlarida ilm va amal birligi hamda fanlar integratsiyasi g‘oyalarini tahlil qilish; XX asr boshidagi jadid ma’rifatparvarlarining o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligi va til ta’limiga qo‘ygan talablarini ochib berish; mustaqillik davrida ta’lim sohasida qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarning hamda zamonaviy pedagogikadagi kompetensiyaviy-integrativ yondashuvlarning mazmunini asoslash; tarixiy-pedagogik tajriba bilan zamonaviy integrativ o‘qitish tamoyillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni qiyosiy tizimlashtirish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning nazariy-tarixiy xususiyatidan kelib chiqib, muammoni o‘rganishda quyidagi ikkita asosiy ilmiy-pedagogik metodga tayanildi:

1. Tarixiy-pedagogik tahlil metodi: Bu metod yordamida IX–XI asr Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlari (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino) hamda XX asr boshidagi jadid ma’rifatparvarlari (Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat) asarlaridagi ilm-amal birligi va o‘qituvchi tayyorgarligiga oid didaktik g‘oyalar tarixiy rivojlanish jarayonida tahlil qilindi.

2. Qiyosiy-taqqoslash (komparativ) metodi: Mazkur metod turli tarixiy bosqichlar (IX–XI asrlar, XX asr boshi va mustaqillik davri) hamda ta’lim sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligiga qo‘yilgan talablar va integrativ yondashuvlar o‘rtasidagi o‘xshashlik hamda uzviylikni solishtirish, shuningdek, qiyosiy jadval asosida tizimlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini Sharq allomalarining falsafiy-pedagogik risolalari, jadid matbuoti va darsliklari, ta’lim sohasidagi davlat me’yoriy-huquqiy hujjatlari hamda 2020–2025-yillarda nashr etilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo‘lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarni integrativ yondashuv asosida shakllantirish masalasi pedagogika nazariyasi va tarixida chuqur ildizlarga ega. Mavzuga oid ilmiy-nazariy manbalarni ko‘rib chiqsak, muammoning tadrijiy rivojlanishini uchta asosiy bosqich va nazariy yo‘nalish doirasida kuzatish mumkin.

1. Sharq pedagogik fikrida bilim, tafakkur va amal birligi (IX–XI asrlar). Kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarning nazariy asoslarini tahlil qilishda Sharq mutafakkirlarining ilmlar tasnifi hamda nazariya va amaliyot birligi haqidagi qarashlari muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Abu Nasr Forobiy (873–950) “Ilmlar tasnifi” (“Ihso al-ulum”) asarida barcha fanlarni – til ilmi, mantiq, ta’limiy va tabiiy ilmlar hamda madaniy ilmlarni – o‘zaro bog‘liq yaxlit tizim sifatida talqin etadi [2]. Tasnifda til ilmining birinchi o‘rinda turishi filologik ta’lim uchun alohida metodologik ahamiyatga ega: alloma tilni bilishni boshqa ilmlarni egallashning zaruriy sharti, mantiqni esa to‘g‘ri fikrlash quroli deb hisoblaydi [2]. Bu qarash bo‘lajak filologning kasbiy tayyorgarligida lingvistik bilimlar bilan tahliliy tafakkur ko‘nikmalari birga shakllantirilishi kerakligini asoslaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim jarayonida kuzatish, tajriba va nazariy bilimlarni amalda sinab ko‘rishga alohida e’tibor bergan. T. Jabborov ta’kidlaganidek, allomaning bir necha tilni mukammal bilishi ilmiy faoliyatida tillararo qiyosiy-integrativ yondashuvning shakllanishiga olib kelgan [7]. Abu Ali ibn Sino esa “Tadbir al-manzil” va boshqa pedagogik asarlarida o‘qituvchining shaxsiy namunasi, o‘quvchining qobiliyati va moyilligini hisobga olish, bilimni oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich berish kabi didaktik tamoyillarni ilgari surgan [3]. Xullas, IX–XI asr allomalarining ilm va amal birligi haqidagi g‘oyalari bugungi kasbiy-pedagogik ko‘nikma tushunchasi bilan, ya’ni nazariy bilimni amaliy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bilan to‘la hamohang.

2. XX asr boshida jadid ma’rifatparvarlarining o‘qituvchi kasbiy tayyorgarligiga oid qarashlari. XX asr boshida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati o‘zbek pedagogik fikrida o‘qituvchi shaxsiga va uning kasbiy tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. An’anaviy maktablardagi quruq yodlashga asoslangan usul o‘rniga jadidlar tovush metodiga tayangan usuli savtiyani joriy etdilar va darslarda ko‘rgazmalilik, savol-javob hamda faol o‘qitish metodlaridan foydalandilar.

“Islohi tahsil” maqolasida Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonaviy muallimda bo‘lishi shart bo‘lgan uchta sifatni ajratib ko‘rsatadi: chuqur bilimlilik, kasbga fidoyilik va usuli tahsilni (o‘qitish metodikasini) mukammal bilish [4]. Bu uch talab zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarining tarkibiy komponentlariga – mazmuniy, shaxsiy-motivatsion va texnologik-amaliy komponentlarga – to‘liq mos tushadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” [5] hamda Abdurauf Fitratning “Rahbari najot” [6] asarlarida esa o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy qiyofasi, notiqlik mahorati va o‘quvchi tafakkurini uyg‘otish ko‘nikmalari keng yoritilgan.

Filologik ta’lim nuqtayi nazaridan qaraganda, jadidlar til o‘qitishni millatning ma’naviy uyg‘onishi va umumiy savodxonligi bilan bog‘lab ko‘rdilar. Behbudiyning ona tili qatorida xorijiy tillarni ham o‘zaro uyg‘un o‘rganish zarurligi

ISSN 3060-5059 (Online)

haqidagi fikrlari, shuningdek, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ahmad Hodi Maqsudiy va Saidrasul Aziziy yaratgan darsliklar til ta'limida nazariya va amaliyot integratsiyasining ilk amaliy namunasi bo'ldi.

3. Mustaqillik davri va zamonaviy pedagogikada integrativ hamda kompetensiyaviy yondashuvlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [8] hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [9] shaxsni kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti deb belgiladi va ta'limga kompetensiyaviy yondashuvni olib kirdi. 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri (O'RQ-637) qabul qilindi [10]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni [1] esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda nazariya va amaliyot uzviyligini ta'minlash hamda ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish vazifalarini yanada dolzarb qilib qo'ydi.

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda filologik ta'limdagi integrativ yondashuvning turli qirralari o'rganilgan. O. I. Biryukova pedagogika universitetlarining filologiya fakultetlarida adabiyotshunoslik va tilshunoslik fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitishning didaktik shartlarini asoslab bergan [11]. L. V. Kalinina va hammualliflar bo'lajak filologlarning til kompetensiyasini til aspektlari integratsiyasi asosida rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqqan [12]. T. Kachak til va adabiyot darslarida integratsiyalashgan ta'lim texnologiyalarining samaradorligini ko'rsatgan [13]. E. Schat va hammualliflar xorijiy til hamda adabiyot ta'limida madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish uchun san'at va gumanitar fanlar integratsiyasi tamoyillarini taklif etgan [15]. G. Q. Madmarova esa bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni shakllantirishda interfaol, raqamli va refleksiv texnologiyalarni uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlagan [14]. So'nggi yillardagi ishlarda tarixiy-pedagogik bilimlarni zamonaviy o'qituvchi tayyorlash tizimiga integratsiyalash [18] hamda filologik ta'limda aralash (blended learning) modellardan foydalanish [19] masalalari ham ko'rib chiqilgan.Shunga qaramay, adabiyotlar tahlili tadqiqotlarning aksariyati yo umumiy pedagogik tayyorgarlikka, yo faqat lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilganini ko'rsatadi. Bo'lajak filologlarda, xususan, xorijiy til o'qituvchilarida aynan kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni tarixiy-pedagogik tajriba va zamonaviy integrativ ta'lim usullari uyg'unligida shakllantirish masalasi esa yaxlit tizim sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tarixiy-pedagogik va qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, bo'lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish va integratsiyalash g'oyalari tadrijiy rivojlanishda uchta yirik tarixiy bosqichni bosib o'tgan. Har bir bosqich o'z davrining ijtimoiy-madaniy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'qituvchi tayyorlash va til o'qitish nazariyasini yangi tamoyillar bilan boyitdi. Bosqichlarning qiyosiy tahlili 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval.Bo'lajak filologlarda kasbiy-pedagogik ko'nikmalarni shakllantirish va integratsiya g'oyalarining tarixiy-pedagogik taraqqiyoti

Tarixiy bosqich	Asosiy namoyandalar va me'yoriy hujjatlar	Yetakchi pedagogik va didaktik g'oyalar	Bo'lajak filologlarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga ta'siri
IX–XI asrlar (Sharq Uyg'onish davri)	Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino	Ilm va amal birligi; fanlar tasnifi va o'zaro bog'liqligi; til ilmining birlamchi o'rni; kuzatish, tajriba va bosqichma-bosqich o'qitish tamoyillari [2, 3, 7].	Integrativ yondashuvning tarixiy-nazariy poydevori; lingvistik bilimlar bilan mantiqiy-tahliliy tafakkurni uyg'unlashtirish; nazariyani amaliyotga tatbiq etish.
XX asr boshi (Jadidchilik davri)	Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov	Usuli savtiya; muallimga qo'yilgan uch talab (ilmlilik, fidoyilik, usuli tahsil); ona tili va xorijiy tillarni uyg'un o'rganish; til ta'limining tarbiyaviy vazifasi [4, 5, 6].	O'qituvchi kasbiy tayyorgarligining komponentli tuzilmasi (mazmuniy, motivatsion, metodik); til kompetensiyasini o'qitish metodikasi bilan integratsiyalash.
Mustaqillik davri (1991-yildan hozirgacha)	"Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar (1997, 2020), "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", PF-73-son Farmon [1, 8, 9, 10].	Kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar; fanlararo, aspektlararo va raqamli texnologiyalar integratsiyasi [11, 12, 14].	Bilim va ko'nikmalarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash; xorijiy tillarni o'qitishda nazariya va amaliyot uzviyligini ta'minlovchi integrativ modelga ehtiyoj.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi tarixiy-pedagogik meros bilan zamonaviy integrativ ta'lim o'rtasida izchil metodologik yaqinlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu yaqinlik uch jihatda yaqqol ko'rinadi:

1. Ilm-amal birligidan – kompetensiyaviy yondashuvga: Forobiy tasnifida til ilmi bilan mantiqning o'zaro bog'liqligi [2] va Beruniyning nazariy bilimni tajribada sinash haqidagi qarashlari [7] bugungi oliy filologik ta'limdagi nazariya va pedagogik amaliyot integratsiyasi tamoyilining tarixiy asosini tashkil etadi. Zamonaviy tadqiqotlar ham shuni ta'kidlaydi [16, 18]: bo'lajak o'qituvchi oliy ta'lim muassasasida olgan fundamental lingvistik bilimlarini (fonetika, grammatika, leksikologiya) maktab yoki akademik litsey auditoriyasida, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda qo'llay olishi zarur.

2. "Usuli tahsil"dan – zamonaviy integrativ metodikaga: Jadid ma'rifatparvarlari, xususan, Behbudiy ilgari surgan talab – muallimning usuli tahsilni (o'qitish metodikasini) mukammal bilishi [4] hamda ko'p tillilik g'oyasi bugun xorijiy tillarni o'qitishda keng qo'llanayotgan fanlararo va aspektlararo integratsiya [11, 12], madaniyatlararo yondashuv [15] va aralash ta'lim (blended learning) texnologiyalari [19] bilan mazmunan uyg'un keladi.

3. Integratsiya darajalarining kengayishi: IX–XI asrlarda integratsiya, asosan, fanlararo bog'liqlik (til, mantiq, falsafa) ko'rinishida namoyon bo'lgan edi; XX asr boshiga kelib u mazmun va metodika integratsiyasi darajasiga ko'tarildi.

Mustaqillik davri va zamonaviy bosqichda esa bo‘lajak filologlar tayyorgarligida uch yo‘nalishli integratsiya – lingvistik bilimlar, pedagogik-metodik mahorat va raqamli-interfaol texnologiyalar uyg‘unligi [14, 17] asosiy talabga aylandi.

Shu bilan birga, hozirgi oliy filologik ta’lim amaliyotida til aspektlari (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) bilan pedagogik fanlar (pedagogika nazariyasi, o‘qitish metodikasi) ko‘pincha bir-biridan alohida o‘qitilishi aniqlandi. Natijada bitiruvchilarning nazariy til bilimi yuqori bo‘lsa-da, darsni loyihalash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish kabi kasbiy-pedagogik ko‘nikmalari yetarli darajada rivojlanmay qolmoqda. Bizningcha, aynan shu yerda tarixiy-pedagogik tajribadagi ilm va amal birligi tamoyilini zamonaviy integrativ ta’lim usullari bilan birlashtirish muammoning samarali yechimi bo‘la oladi.

Xulosa. Tarixiy-pedagogik va qiyosiy tahlil bo‘lajak filologlarning kasbiy-pedagogik ko‘nikmalarini integrativ rivojlantirish milliy pedagogik merosga tayanishini ko‘rsatdi. IX–XI asr Sharq mutafakkirlari ilm va amal birligi, fanlararo aloqadorlik hamda tilning bilim egallashdagi o‘rnini yoritganlar [2, 3, 7]. Jadid ma’rifatparvarlari esa o‘qituvchining kasbiy bilimdonligi, fidoyiligi va metodik tayyorgarligiga urg‘u berib, ona tili va xorijiy tillarni uyg‘un o‘qitish hamda til ta’limini tarbiya bilan bog‘lash g‘oyalarini ilgari surganlar [4, 5, 6].Zamonaviy oliy filologik ta’limda kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar ustuvor [1, 8, 9, 10]. Til aspektlarini pedagogik-metodik fanlar bilan bog‘lab o‘qitish mexanizmlari esa yetarlicha tizimlashtirilmagan. Shu bois ilm va amal birligi tamoyilini fanlararo, aspektlararo va raqamli integratsiya usullari bilan uyg‘unlashtiruvchi yaxlit o‘qitish modelini joriy etish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son «Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/acts/-7499721. lex.uz
2. Abu Nasr Forobiy. Ilmlar tasnifi («Ihso al-ulum»). – Toshkent: Fan, 1975. – 142 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Tadbir al-manzil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010. – 128 b.
4. Behbudiy M. Islohi tahsil // Tujjor. – 1907. – № 10.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b. – URL (asarning elektron matni): https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/abdulla-avloniy/abdulla-avloniy-turkiy-guliston-yoxud-axloq/. res.guldu.uz
6. Fitrat A. Rahbari najot. – Toshkent: Cho‘lpon, 2000. – 112 b.
7. Jabborov T. H. Beruniyning «Hindiston» asari muhim tarixiy manba // Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali. – 2024. – Jild 4, № 8. – URL: https://www.scienceboxuz.uz/index.php/jars/article/view/11715. scienceboxuz.uz
8. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 464-I-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni (o‘z kuchini yo‘qotgan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-16188. lex.uz
9. O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustdagi 463-I-son «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi Qonuni (o‘z kuchini yo‘qotgan) // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-48401. lex.uz
10. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – URL: https://lex.uz/docs/-5013007. lex.uz
11. Biryukova O. I. Integrated Learning as a Promising Form of Organising Literary Education at a University // Pedagogy. Theory & Practice. – 2023. – Vol. 8, № 9. – P. 904–909. – DOI: https://doi.org/10.30853/ped20230132. gramota.net
12. Kalinina L. V., Grygorieva T. Yu., Chumak L. M. Future Philologists’ Language Competence Formation on the Basis of Aspect Integration // Zhytomyr Ivan Franko State University Journal. Pedagogical Sciences. – 2022. – № 1 (108). – P. 96–104. – URL: https://eprints.zu.edu.ua/34102/. Zhytomyr State University Library
13. Kachak T., Blyznyuk T. Technology of Integrated Learning in Language and Literary Education Classes // Educational Horizons. – 2023. – № 1 (56). – P. 89–94. – DOI: https://doi.org/10.15330/obrii.56.1.89-94. 89
14. Madmarova G. Q. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishda interfaol, vitagen, raqamli va refleksiv texnologiyalarning integratsiyasi // Ta’lim va taraqqiyot. – 2026. – № 3. – URL: https://journal.namspi.uz/articleview/1002. journal.namspi.uz
15. Schat E., van der Knaap E., de Graaff R. Key Principles for an Integrated Intercultural Literary Pedagogy: An Educational Design Research Project on Arts Integration for Intercultural Competence // Language Teaching Research. – 2023. – Vol. 27, № 2. – P. 332–358. – DOI: https://doi.org/10.1177/13621688211045012. Utrecht University
16. Suyo-Vega J. A., Fernández-Bedoya V. H., Meneses-La-Riva M. E. Beyond Traditional Teaching: A Systematic Review of Innovative Pedagogical Practices in Higher Education // F1000Research. – 2024. – Vol. 13. – Article 22. – Version 2. – DOI: https://doi.org/10.12688/f1000research.143392.2. PMC
17. Grygorenko T. V., Zakharevych M. A., Nieliepova A. V., Avdieieva O. S., Holiuk O. A. Improving of Educational Programs for the Formation of Information and Communication Competence of Teachers // Propósitos y Representaciones. – 2021. – Vol. 9, Special Issue 2. – Article e995. – DOI: https://doi.org/10.20511/pyr2021.v9nSPE2.995. files.eric.ed.gov
18. Leontieva I. V. Досвід інтеграції історико-педагогічного знання у зміст професійної підготовки сучасного педагога // Педагогічна освіта: теорія і практика. Психологія. Педагогіка. – 2020. – № 33. – С. 48–56. – DOI: https://doi.org/10.28925/2311-2409.2020.33.6. pedosvita.kubg.edu.ua
19. Kambarova D. Y. Blended Learning Models in Philological Education: Challenges and Prospects // Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Vol. 2, № 11, Part 2. – P. 47–52. – DOI: https://doi.org/10.70413/cajmrms-v02-i11-s46889. in-academy.uz